

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**NON-EQUIVALENT LEXICON AS A PRIMARY OBJECT OF RESEARCH IN LINGUOCULTUROLOGY****Khasanboy Qodirjonov**

PhD Candidate

Is'hoqxon Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages

Email: hasanboy100193@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: non-equivalent lexicon, linguocultural studies, equivalence, translation, cultural connotation, pragmatic adaptation.

Received: 10.11.25**Accepted:** 11.11.25**Published:** 12.11.25

Abstract: This article examines the concept of non-equivalent lexicon from a linguocultural perspective. It focuses on the national-cultural peculiarities of non-equivalent units, the difficulties of their translation, and the ways translators convey them based on pragmatic and equivalence principles. Theoretical views of scholars such as Nida, Newmark, and Venuti are compared with Uzbek linguistic approaches to explain the linguocultural essence of non-equivalent lexicon.

MUQOBILSIZ LEKSIKA - LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKNING ASOSIY TADQIQOT OB'YEKTI SIFATIDA**Xasanboy Qodirjonov**

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat

chet tillari instituti tayanch-doktoranti

Email: hasanboy100193@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: muqobilsiz leksika, lingvomadaniyatshunoslik, ekvivalentlik, tarjima, madaniy konnotatsiya, pragmatik moslashuv.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muqobilsiz leksika tushunchasi lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Maqolada muqobilsiz birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari, ularning tarjimada ifodalanishdagi qiyinchiliklari hamda tarjimon tomonidan pragmatik va ekvivalentlik tamoyillari asosida berilishi masalalari yoritiladi. Shuningdek, Nida, Newmark, Venuti kabi olimlarning

nazariy qarashlari o'zbek tilshunosligi bilan solishtirilib, muqobilsiz leksikaning lingvomadaniy mohiyati ilmiy asosda izohlanadi.

БЕЗЭКВИВАЛЕНТНАЯ ЛЕКСИКА КАК ОСНОВНОЙ ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ

Хасанбой Ходиржонов

Соискатель степени PhD

*Наманганский государственный институт
иностранных языков имени Исхохона Ибрата*

Email: hasanboy100193@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: безэквивалентная лексика, лингвокультурология, эквивалентность, перевод, культурная коннотация, прагматическая адаптация.

Аннотация: В статье анализируется понятие безэквивалентной лексики с точки зрения лингвокультурологии. Рассматриваются национально-культурные особенности безэквивалентных единиц, трудности их перевода и способы передачи с позиции прагматической адаптации и эквивалентности. Сопоставлены теоретические взгляды таких учёных, как Найда, Ньюмарк и Венути, с подходами узбекского языкознания.

Kirish. Til va madaniyat o'zaro uzviy bog'liq hodisalar bo'lib, har bir tilda millatning mentaliteti, urf-odati, dunyoqarashi o'z ifodasini topadi [1]. Shu bois, lingvomadaniyatshunoslik fanida muqobilsiz leksika masalasi markaziy o'rin tutadi. Chunki bu birliklar orqali til egasining milliy o'ziga xosligi, tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlari namoyon bo'ladi [2].

Muqobilsiz leksika deganda boshqa tilda to'liq semantik muqobili mavjud bo'lmagan, faqat ma'lum bir xalq madaniyatiga xos leksik birliklar tushuniladi. Bunday birliklar, odatda, milliy taomlar, kiyimlar, urf-odatlar, diniy tushunchalar va tarixiy atamalar bilan bog'liq bo'ladi [3].

Zamonaviy tarjimashunoslikda bu leksik birliklar muhim tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Tarjima jarayonida muqobilsiz leksikani to'g'ri va madaniy jihatdan adekvat yetkazish tarjimonning lingvomadaniy kompetensiyasiga bog'liqdir [4]. Shuning uchun ham bu soha so'nggi yillarda lingvokulturologik, pragmatik va semantik tahlil yo'nalishlarida faol rivojlanmoqda [5].

Asosiy qism. 1. Muqobilsiz leksika tushunchasi va uning lingvomadaniy mohiyati

Muqobilsiz leksika tildagi eng murakkab va madaniy jihatdan to'yingan qatlamlardan biridir. U tilning milliy-madaniy xususiyatlarini eng aniq ifodalovchi birliklar majmuasini tashkil etadi [6]. Bunday so'zlar, odatda, boshqa tilda to'liq ekvivalenti bo'lmagan, milliy koloritni

ifodalovchi birliklardir. Masalan, o'zbek tilidagi mahalla, suyunchi, nonushta kabi so'zlar ingliz tilida so'zma-so'z tarjima qilinsa, asl ma'no va madaniy mazmun to'liq yetkazilmaydi [7].

Tilshunoslar fikriga ko'ra, muqobilsiz leksika xalqning mentalitetini, tarixiy xotirasini, ijtimoiy qadriyatlarini va madaniy o'ziga xosligini aks ettiradi. Shu sababli bu leksik qatlam lingvomadaniyatshunoslikning markaziy tadqiqot obyekti sifatida qaraladi [8].

Muqobilsiz leksik birliklar ikki asosiy guruhga bo'linadi:

1. Absolyut muqobilsiz birliklar – boshqa tillarda hech qanday ekvivalenti bo'lmagan so'zlar (suyunchi, qovun sayli, navruz).
2. Nisbiy muqobilsiz birliklar – boshqa tillarda qisman o'xshash ma'noga ega, ammo madaniy yoki emotsional jihatdan to'liq mos kelmaydigan so'zlar (mehmondo'stlik, xushmuomala).

Bu farqni birinchi bo'lib rus tarjimashunosi V. N. Komissarov nazariy asosda ajratib bergan [9]. Uning fikricha, tarjimon muqobilsiz leksikani to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilishga urinmasdan, madaniy adaptatsiya orqali o'quvchi ongida kerakli assotsiatsiyani hosil qilishi kerak [10].

Bunday birliklarni to'g'ri tarjima qilish uchun nafaqat til, balki madaniyat, tarix va xalq psixologiyasi haqidagi bilim zarur. Shu nuqtai nazardan, tarjimon madaniyatlararo vositachi sifatida namoyon bo'ladi [11].

2. Muqobilsiz leksikaning tarjima jarayonidagi lingvomadaniy xususiyatlari

Tarjima jarayonida muqobilsiz leksika eng murakkab va mas'uliyatli qatlamlardan biri sanaladi. Chunki bu birliklar nafaqat til, balki madaniyat, tarix va mentalitet bilan uzviy bog'liqdir [12]. Tarjimon har bir muqobilsiz birlikni tahlil qilayotganda, uning semantik tarkibini, madaniy konnotatsiyasini hamda ijtimoiy ma'nosini chuqur o'rganishi lozim. Masalan, o'zbek tilidagi suyunchi so'zi semantik jihatdan “xushxabar uchun beriladigan sovg'a” degan ma'noni bildiradi. Ingliz tilida unga yaqin reward for good news ifodasi mavjud bo'lsa-da, u xalq urf-odatlarini, ijtimoiy qadriyatlari bilan bog'liq madaniy ma'noni to'liq bera olmaydi [13]. Shuning uchun tarjimon bunday hollarda “madaniy izohli tarjima” usulini qo'llaydi [14]. E. Nida tomonidan ilgari surilgan “dinamik ekvivalentlik” nazariyasiga ko'ra, tarjima asarda asosiy maqsad — manba tilidagi g'oyaning o'quvchiga tabiiy va madaniy jihatdan ta'sirini yetkazishdir [15]. Shu sababli muqobilsiz leksikani tarjima qilishda so'zning formal shakli emas, balki uning kommunikativ va pragmatik funksiyasi muhim ahamiyat kasb etadi [16].

P. Newmark esa bunday holatlarda “semantik tarjima” va “kommunikativ tarjima” uslublarini ajratib ko'rsatadi [17]. Uning fikricha, muqobilsiz leksika bilan ishlashda semantik tarjima so'zning asl ma'nosini saqlashga intilsa, kommunikativ tarjima esa o'quvchining madaniy tajribasiga mos shaklda ifoda topadi. Masalan, o'zbek tilidagi navruz so'zini ingliz tiliga Navruz holiday, Persian New Year deb tarjima qilish mumkin. Ammo bu shakllar o'zbek xalqining

bahoriy qadriyatlarini, “yangi hayot” ramzi kabi madaniy elementlarni to‘liq ifodalay olmaydi [18]. Shu bois, Venuti bunday birliklarni tarjima qilishda “madaniy shaffoflik”ni saqlashni, ya’ni o‘quvchini manba madaniyatga yaqinlashtirishni taklif etadi [19].

Tarjimonning asosiy vazifasi — o‘quvchiga begona madaniyatni sun’iy emas, tabiiy shaklda yetkazishdir. Buning uchun u kontekst, pragmatika va madaniy kodlarni birgalikda tahlil qilishi kerak. Shu yo‘sinda tarjima nafaqat til o‘zgarishi, balki madaniyatlararo kommunikatsiya vositasiga aylanadi [20].

3. Muqobilsiz leksikaning o‘zbek tilshunosligida tadqiq etilishi

O‘zbek tilshunosligida muqobilsiz leksika masalasi mustaqillik yillarida alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Chunki milliy til va madaniyatning uyg‘unligi, ularning o‘zaro ta’siri masalalari ijtimoiy hayotning barcha sohalarida dolzarb ahamiyat kasb etdi [21].

Muqobilsiz leksika bo‘yicha dastlabki ilmiy izlanishlar o‘zbek tilining milliy xususiyatlarini aniqlashga, xalq madaniyati va urf-odatlariga bog‘liq so‘zlarni tahlil qilishga qaratilgan. Tilshunos D. Hudoyberganova muqobilsiz birliklarni “milliy madaniyat ko‘zgusi” deb ataydi hamda ularning semantik tahlilini madaniy qatlam bilan birgalikda olib borishni taklif etadi [22]. Shuningdek, G. Abdullayeva o‘z tadqiqotlarida muqobilsiz leksikaning tasnifini ishlab chiqqan: u bu birliklarni madaniy-hayotiy (urf-odat, marosim, taomlar), sotsial (ijtimoiy tuzum, ierarxiya) va psixologik (milliy xarakter, mentalitet) guruhlariga ajratadi [23]. Ushbu tasnif muqobilsiz leksikaning lingvokulturologik mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Keyingi yillarda o‘zbek tarjimashunosligida ham muqobilsiz birliklar masalasi keng tadqiq qilinmoqda. Xususan, G. R. Rahimov, N. Sayfullayeva, M. Jo‘rayeva, D. Qodirova kabi olimlar o‘z ishlarida milliy madaniyat elementlarining tarjima jarayonidagi transformatsiyasini o‘rganganlar [24]. Ularning tadqiqotlarida muqobilsiz birliklar faqat semantik emas, balki pragmatik va kognitiv jihatdan ham tahlil etilgan [25]. Bu yo‘nalishda olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi ko‘plab leksik birliklar nafaqat madaniy, balki milliy mentalitetni ifodalovchi semantik yukga ega. Masalan, mahalla, dugona, mehmondo‘stlik, suyunchi, choy ichish marosimi kabi birliklar faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy-madaniy kontekstda o‘z ma’nosini to‘liq ochadi [26]. Shu bois, bugungi kunda muqobilsiz leksika o‘zbek lingvomadaniyatshunosligining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. U xalq madaniy xotirasining lingvistik ifodasi, milliy o‘zlikni anglashning semantik vositasidir [27].

4. Xorijiy yondashuvlar va umumiy tahliliy xulosa

Muqobilsiz leksika masalasi jahon tilshunosligida ham keng ilmiy qiziqish uyg‘otgan mavzulardan biridir. Xususan, ingliz, rus, fransuz va yapon tilshunoslik an‘analarida bu hodisa “culture-specific items”, “untranslatable words”, “realia” yoki “culture-bound terms” atamallari bilan izohlanadi [28]. Ularning barchasi milliy madaniyatni lingvistik vositalar orqali aks

ettiruvchi birliklar sifatida talqin qilinadi. G'arb olimlari orasida bu masalaga dastlab A. Vezbitskaya (A. Wierzbicka) va J. Katford (J. C. Catford) ilmiy yondashuv bildirganlar. Wierzbicka o'zining "Semantics, Culture, and Cognition" asarida muqobilsiz birliklarni "madaniy jihatdan belgilangan semantik prototiplar" sifatida baholaydi [29]. Unga ko'ra, har bir tilda insonning dunyo haqidagi tasavvuri o'ziga xos konseptual model orqali ifodalanadi, shu sababli ayrim so'zlar boshqa tillarda to'liq ekvivalent topa olmaydi.

Tarjima nazariyasi nuqtayi nazaridan esa P. Nyu-Mark (P. Newmark), E. Nida (E. Nida), L. Venuti (L. Venuti) kabi olimlar muqobilsiz leksikaning ekvivalentini topish, madaniy transformatsiya va adaptatsiya muammolarini atroflicha o'rganishgan [30]. Nida o'zining "dynamic equivalence" nazariyasida tarjimonning asosiy vazifasi — ma'noni emas, balki ta'sirni ekvivalent shaklda yetkazishdan iboratligini ta'kidlaydi [31]. Newmark esa muqobilsiz birliklar uchun "transference", "cultural equivalent" va "descriptive translation" strategiyalarini taklif etadi [32].

So'nggi yillarda lingvokulturologiya yo'nalishida G. Lakoff, M. Johnson, U. Eko, A. Vezbitskaya kabi olimlarning ishlarida madaniy konseptlar, metaforik modellar va identifikatsiya jarayonlari muqobilsiz leksika tahlilida markaziy o'rin egallagan [33]. Ularning fikricha, bunday birliklarni to'liq anglash uchun nafaqat til, balki madaniy kontekst, tarixiy voqealar, diniy qadriyatlar ham hisobga olinishi zarur.

Umuman olganda, xorijiy adabiyotlarda muqobilsiz leksika tahlilida quyidagi yondashuvlar ajratiladi:

1. Semantik-kognitiv yondashuv – leksik birliklarning madaniy konseptlar bilan bog'liqligini ochadi (A. Wierzbicka, G. Lakoff).
2. Tarjimashunoslik yondashuvi – ekvivalent topish va adaptatsiya strategiyalarini ishlab chiqadi (E. Nida, P. Newmark).
3. Pragmatik yondashuv – so'zning ta'sir kuchi va madaniy konnotatsiyasini tahlil qiladi (L. Venuti, U. Eko).

Mazkur yondashuvlar o'zbek tilshunosligi uchun ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ular muqobilsiz leksikani nafaqat lug'aviy darajada, balki madaniyatlararo kommunikatsiya kontekstida o'rganish imkonini beradi. Shu jihatdan, o'zbek tilidagi mahalla, suyunchi, osh, to'y, dugona, navro'z kabi birliklarni xorijiy tillarga to'liq tarjima qilish emas, balki ularning madaniy konnotatsiyasini saqlagan holda izohlab yetkazish muhimdir [34].

Shunday qilib, muqobilsiz leksika til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni namoyon etuvchi universal hodisadir. Uni o'rganish milliy identitet, madaniy meros va kommunikativ tafakkurni anglashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bu soha hozirgi kunda

lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika va tarjimashunoslik fanlarining kesishgan nuqtasida rivojlanib bormoqda [35].

Xulosa. Muqobilsiz leksika til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni o'rganishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan lingvomadaniy birliklar tizimini tashkil etadi. Ular xalqning milliy o'ziga xosligini, dunyoqarashini, qadriyatlarini hamda ijtimoiy hayot tarzini aks ettiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli muqobilsiz leksika lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tadqiqot obyekti sifatida alohida e'tiborga loyiqdir [36]. Mazkur maqolada muqobilsiz leksikaning nazariy asoslari, ularning kognitiv, semantik va madaniy xususiyatlari, shuningdek, tarjimada yuzaga keladigan muammolar tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday birliklarning ekvivalentini aniqlashda tarjimon nafaqat lingvistik, balki pragmatik va madaniy omillarni ham hisobga olishi lozim. Shuningdek, har bir tilning semantik maydoni o'z madaniy modellariga tayanadi, bu esa "madaniyatlararo tarjima" jarayonida muqobilsiz so'zlarning to'liq aks ettirilmasligiga sabab bo'ladi [37].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muqobilsiz leksika quyidagi ilmiy xulosalarni asoslaydi:

1. Muqobilsiz leksika milliy madaniyatning konseptual modelini saqlovchi asosiy birlikdir.
2. Ularni o'rganish jarayonida semantik, kognitiv va pragmatik yondashuvlarning integratsiyasi muhim.
3. Tarjima jarayonida muqobilsiz leksikani to'liq ekvivalent bilan almashtirish o'rniga, madaniy izoh, transkripsiya yoki deskriptiv tarjima usullarini qo'llash samarali natija beradi [38].
4. O'zbek tilidagi muqobilsiz birliklarni (masalan, mahalla, to'y, suyunchi) xorijiy tillarga o'girishda milliy qadriyat va ma'naviy konnotatsiyani yo'qotmaslik uchun lingvokulturologik tahlil zarur.

Shu nuqtayi nazardan, muqobilsiz leksikani chuqur o'rganish nafaqat tarjimashunoslik, balki madaniyatlararo muloqot, pragmalolingvistika va semiotika sohalari rivojiga ham sezilarli hissa qo'shadi. Mazkur tadqiqot o'zbek tilining madaniy-semantik imkoniyatlarini tahlil etish hamda xalqaro ilmiy maydonda o'z o'rnini mustahkamlash uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [39].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Humboldt W. "Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues." Berlin, 1836.
2. Wierzbicka A. "Understanding Cultures through Their Key Words." Oxford University Press, 1997.

3. Комиссаров В. Н. “Теория перевода (лингвистические аспекты).” Москва, 1990.
4. Nida E. A. “Toward a Science of Translating.” Leiden: Brill, 1964.
5. Newmark P. “A Textbook of Translation.” Prentice Hall, 1988.
6. Верецагин Е. М., Костомаров В. Г. “Язык и культура.” Москва: Русский язык, 1990.
7. Karimov I. A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.” Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
8. Wierzbicka A. “Understanding Cultures through Their Key Words.” Oxford University Press, 1997.
9. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). Москва, 1990.
10. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, 2011.
11. Venuti L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. Routledge, 1995.
12. Федоров А. В. Основы общей теории перевода. Москва: Высшая школа, 1983.
13. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. Москва, 1966.
14. Newmark P. Approaches to Translation. Oxford: Pergamon Press, 1981.
15. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill, 1982.
16. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. Москва, 1999.
17. Newmark P. A Textbook of Translation. Prentice Hall, 1988.
18. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, 2011.
19. Venuti L. The Scandals of Translation. Routledge, 1998.
20. Hatim B., Mason I. Discourse and the Translator. Longman, 1990.
21. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
22. Hudoyberganova D. O‘zbek tilida madaniy semantika muammolari. Toshkent: Fan, 2015.
23. Abdullayeva G. Til va madaniyat munosabati. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
24. Rahimov G. R. Tarjimada madaniy transformatsiya masalalari. Toshkent, 2016.
25. Sayfullayeva N. Tilshunoslikning kognitiv va pragmatik yo‘nalishlari. Toshkent, 2019.
26. Qodirova D. Muqobilsiz leksika tarjimasining lingvokulturologik jihatlar. Toshkent, 2020.
27. Sharipova N. O‘zbek madaniyatida lingvistik obrazlar tizimi. Toshkent, 2021.
28. Catford J. C. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press, 1965.

29. Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition. New York: Oxford University Press, 1992.
30. Newmark P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988.
31. Nida E. Toward a Science of Translating. Leiden: Brill, 1964.
32. Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. London: Routledge, 1995.
33. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
34. Эко У. The Role of the Reader: Exploration in the Semiotics of Texts. Indiana University Press, 1984.
35. Sharipova N. O'zbek madaniyatida lingvistik obrazlar tizimi. Toshkent, 2021.
36. Венути Л. Скандалы перевода. Лондон: Роутледж, 1998.